Xalq deputatlari Zangiota tumani
Kengashining
2026-yil 6-apreldagi
VII-26-24-10-138-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati Zangiota tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining

T A V S I F I

Qozogʻiston Respublikasi hamda Toshkent, Zangiota tumanlarining chegara chiziqlari tutashgan joy, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan nuqta boshlangʻich
1 - nuqta deb qabul qilindi *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 41°18'37,311", sharqiy uzoqlik koordinatalari 69°02'44,363").*

A dan B gacha Toshkentumaniyerlari bilan 1 - 21 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnlaishda 340 metr masofani oʻtib, keyin umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 591 metr masofani oʻtib, soʻng yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 585 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°18'56,372", sharqiy uzoqlik 69°03'28,535").*

2-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan umumiy shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1265 metr masofani oʻtib, keyin zovurni kesib oʻtib, soʻng dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1042 metr masofani oʻtib, soʻngra toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 41 metr masofada M-1 kanalini kesib oʻtadi va tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin chegara boʻylab shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 386 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°20'08,790", sharqiy uzoqlik 69°04'14,226").*

3-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining gʻarb tomoni bilan umumiy shimoliy yoʻnalishda 592 metr masofani oʻtib, keyin avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda M-1-2 kanalining suv oqimiga

qarshi chap tomoni bila 316 metr masofani o‘tib, kanal burilishida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°20'22,891", sharqiy uzoqlik 69°04'29,121").*

4-nuqtadan chegara chizig‘i M-1-2 kanalidan ariqqa o‘tadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 653 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy yo‘nalishda 299 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi va chegara bo‘ylab umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 345 metr masofada ariqqa tutashadi, so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 117 metr masofani o‘tib, Achchisoy zovuri bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°20'10,886", sharqiy uzoqlik 69°05'22,314").*

5-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Achchisoy zovurining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1650 metr masofani o‘tib, R-3 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°21'00,611", sharqiy uzoqlik 69°05'40,492").*

6-nuqtadan chegara chizig‘i R-3 avtomobil yo‘lidan zovurga o‘tadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 112 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 375 metr masofani o‘tib, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 530 metr masofada R-3 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°21'14,249", sharqiy uzoqlik 69°06'16,003").*

7-nuqtadan chegara chizig‘i R-3 avtomobil yo‘lidan zovurga o‘tadi va umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1326 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°21'08,159", sharqiy uzoqlik 69°07'09,053").*

8-nuqtadan chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tib, keyin ariqqa o‘tadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 210 metr masofani o‘tib, so‘ng tomorqa devoriga o‘tadi va devor bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 231 metr masofani o‘tib, so‘ngra qishloq ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lning janub tomoni bilan umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 38 metr masofada tomorqa devoriga tutashadi va devor bo‘ylab umumiy yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda barcha

burilishlarni hisobga olgan holda 134 metr masofani o‘tadi va qishloq ichki yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning janub tomoni bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda 219 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°20'51,888", sharqiy uzoqlik 69°07'25,302").*

9-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, keyin avtomobil yo‘liga tutashadi va yo‘lning janub tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 313 metr masofani o‘tib, so‘ng to‘g‘ri chiziq orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 22 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°20'47,319", sharqiy uzoqlik 69° 07' 36,934").*

10-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lidan ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 421 metr masofada qishloq ichki yo‘liga tutashadi, keyin qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 111 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41° 20' 37,595", sharqiy uzoqlik 69°07'46,477").*

11-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tadi va ariqqa tutashadi, keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 880 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, Ramadon kanali bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°20'39,044", sharqiy uzoqlik 69°08'21,569").*

12-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Ramadon kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 429 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 557 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°20'56,978", sharqiy uzoqlik 69°08'52,327").*

13-nuqtadan chegara chizig‘i Ramadon kanalini va qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, Jo‘n kanaliga tutashadi va kanalning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 100 metr masofada temir yo‘lini kesib o‘tib, temir yo‘l bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°20'54,704", sharqiy uzoqlik 69°08'55,270").*

14-nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lidan Jo‘n arig‘iga o‘tadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha birilishlarni hisobga olgan holda 382 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chiziq orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 34 metr masofada

Jo‘n arig‘ini va R-3 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°20'43,154", sharqiy uzoqlik 69°08'59,761").*

15-nuqtadan chegara chizig‘i R-3 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 159 metr masofani o‘tib, keyin R-3 avtomobil yo‘ldan qozonxona devoriga o‘tadi va devor bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 38 metr, shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 70 metr masofani o‘tib, devorda joylashgan 16-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°20'48,908", sharqiy uzoqlik 69°09'05,634").*

16-nuqtadan chegara chizig‘i qozonxona devori bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 253 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 287 metr masofada ariqqa o‘tadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 223 metr masofani o‘tib, Qoraqamish arig‘i bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°20'32,711", sharqiy uzoqlik 69°09'16,501").*

17-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Qoraqamish arig‘ininig suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1164 metr masofada R-3 avtomobil yo‘li ko‘prigini kesib o‘tib, ko‘prik bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41° 20' 55,987", sharqiy uzoqlik 69°09' 30,993").*

18-nuqtadan chegara chizig‘i R-3 avtomobil yo‘li ko‘prigidan Qoraqamish arig‘iga o‘tadi va umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1614 metr masofani o‘tib, Soleyniy kanali quyilishida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°21'37,343", sharqiy uzoqlik 69°09'54,996").*

19-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Qoraqamish arig‘ining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1127 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy yo‘nalishda 411 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°22'01,571", sharqiy uzoqlik 69° 10' 34,167").*

20-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy sharqiy yo‘nalishda Qoraqamish arig‘ining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 841 metr masofani o‘tib, Toshkent tumani, Toshkent shahri hamda Zangiota tumanlari chegara chiziqlari tutashgan joy, Toshkent halqa avtomobil

yo‘li bo‘yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°22'05,298", sharqiy uzoqlik 69°11'06,994").*

B dan D gacha Toshkent shahriyerlari bilan 21 - 42 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

21-nuqtadan chegara chizig‘i Toshkent halqa avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2080 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 3098 metr masofani o‘tib, so‘ng Taxta bozor chegarasi bo‘ylab g‘arbiy yo‘nalishda 78 metr masofani o‘tib, Qoraqamish kanali bo‘yida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°19'41,909", sharqiy uzoqlik 69°09'31,892").*

22-nuqtadan chegara chizig‘i Qoraqamish kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2308 metr masofani o‘tib, keyin umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1179 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2655 metr masofani o‘tib, so‘ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 456 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2580 metr masofani o‘tib, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 271 metr masofani o‘tib, Bozsuv kanali quyilishida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°16'01,771", sharqiy uzoqlik 69°07'30,329").*

23-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Bozsuv kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2649 metr masofani o‘tib, Toshkent halqa avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°16'52,451", sharqiy uzoqlik 69°08'51,022").*

24-nuqtadan chegara chizig‘i Bo‘zsuv kanalini kesib o‘tib, Toshkent halqa avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 2126 metr masofani o‘tib, keyin umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3040 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°14'24,643", sharqiy uzoqlik 69°10'00,379").*

25-nuqtadan chegara chizig‘i Toshkent halqa avtomobil yo‘lidan yordamchi avtomobil yo‘liga o‘tadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 512 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chiziq orqali

janubiy-sharqiy yo‘nalishda 49 metr masofada Bunyotkor shoh ko‘chasini kesib o‘tib, yordamchi avtomobil yo‘liga o‘tadi va yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 381 metr masofani o‘tib, Toshkent halqa avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°14'04,075", sharqiy uzoqlik 69°10'09,052").*

26-nuqtadan chegara chizig‘i Toshkent halqa avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 492 metr masofani o‘tib yo‘l bo‘yida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°13'50,511", sharqiy uzoqlik 69°10'20,145").*

27-nuqtadan chegara chizig‘i Toshkent halqa avtomobil yo‘lidan Chorbog‘ 3-tor ko‘chasiga o‘tadi va ko‘chaning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 272 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°13'43,155", sharqiy uzoqlik 69°10'25,709").*

28-nuqtadan chegara chizig‘i Chorbog‘ 3-tor ko‘chasining sharq tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 178 metr masofani o‘tib, Erkin 1-tor ko‘chasi bo‘yida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°13'37,829", sharqiy uzoqlik 69°10'26,123").*

29-nuqtadan chegara chizig‘i Erkin 1-tor ko‘chasining janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiuy yo‘nalishda 168 metr masofani o‘tib, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan 94 metr masofani o‘tib, Erkin ko‘chasiga tutashadi va ko‘chaning shimol tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 111 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°13'30,647", sharqiy uzoqlik 69°10'18,961").*

30-nuqtadan chegara chizig‘i Erkin ko‘chasini kesib o‘tib, Chorbog‘ 3-tor ko‘chasiga tutashadi va ko‘chaning sharq tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 379 metr masofada Toshkent-Samarqand temir yo‘lini kesib o‘tib, temiryo‘l bo‘yida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°13'21,109", sharqiy uzoqlik 69°10'28,879").*

31-nuqtadan chegara chizig‘i Toshkent-Samarqand temir yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 454 metr masofani o‘tib, temir yo‘l bo‘yida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°13'07,215", sharqiy uzoqlik 69°10'22,500").*

32-nuqtadan chegara chizig‘i Toshkent-Samarqand temir yo‘lidan Jo‘n kanaliga o‘tadi va umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi barcha burilishlarni hisobga olgan holda 265 metr masofani o‘tib, M-34 avtomobil yo‘li ko‘prigida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°13'10,050", sharqiy uzoqlik 69°10'29,189").*

33-nuqtadan chegara chizig‘i M-34 avtomobil yo‘li ko‘prigini kesib o‘tib, O‘zar ko‘chasiga tutashadi va ko‘chaning janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 77 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo nalishda 57 metr masofani o‘tib, Vino zavod beton devori bo‘yida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°13'11,319", sharqiy uzoqlik 69°10'33,758").*

34-nuqtadan chegara chizig‘i Vino zavod beton devori bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 151 metr masofani o‘tib, tomorqa devoriga o‘tadi va devor bo‘ylab umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hidobga olgan holda 260 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°13'05,068", sharqiy uzoqlik 69°10'47,652").*

35-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 122 metr masofani o‘tib, keyin zovurni o‘ng tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 373 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°13'00,586", sharqiy uzoqlik 69°11'02,433").*

36-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda yo‘nalishda 332 metr masofani o‘tib, janubiy-sharqiy yo‘nalishda 452 metr masofani o‘tib, Salar kanali bo‘yida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°12'42,231", sharqiy uzoqlik 69°11'07,176").*

37-nuqtadan chegara chizig‘i Salar kanalining suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 735 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°12'23,947", sharqiy uzoqlik 69°10'53,157").*

38-nuqtadan chegara chizig‘i Salar kanalini kesib o‘tib, Loyiha ko‘chasiga tutashadi va ko‘chaning janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 404 metr masofani o‘tib, 4R21 Toshkent aylanma yo‘li bo‘yida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°12'17,892", sharqiy uzoqlik 69°11'08,493").*

39-nuqtadan chegara chizig‘i 4R21 Toshkent aylanma yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 720 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 794 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°11'32,392", sharqiy uzoqlik 69°11'22,659").*

40-nuqtadan chegara chizig‘i 4R21 Toshkent aylanma yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 754 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°11'12,092", sharqiy uzoqlik 69°11'40,712").*

41-nuqtadan chegara chizig‘i 4R21 Toshkent aylanma yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2116 metr masofani o‘tib, Toshkent shahri hamda Yangiyo‘l, Zangiota tumanlari chegara chiziqlari tutashgan joy, yo‘l bo‘yida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°10'23,924", sharqiy uzoqlik 69°12'42,334").*

D dan E gacha Yangiyo‘ltumaniyerlari bilan 41 - 69 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

42-nuqtadan chegara chizig‘i R-12 Toshkent aylanma yo‘lidan qishloq ichki yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 445 metr masofada zovurni kesib o‘tadi va zovurga tutashadi, so‘ng zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda 612 metr, so‘ng janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 630 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°09'52,955", sharqiy uzoqlik 69°11'57,524").*

43-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 712 metr masofani o‘tib, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 1629 metr masofani o‘tib, so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1482 metr masofada zovurni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 44-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°09'29,650", sharqiy uzoqlik 69°09'30,465").*

44-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 537 metr masofani o‘tib, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda yo‘nalishda 270 metr masofani o‘tib, ferma devoriga o‘tadi va devor bo‘ylab janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 180 metr masofani o‘tib, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 168 metr masofada ariqni kesib o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 45-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°09'36,103", sharqiy uzoqlik 69°08'51,555").*

45-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 431 metr masofani o‘tib, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 611 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°09'41,471", sharqiy uzoqlik 69°08'10,679").*

46-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 194 metr masofani o‘tib, Salar kanaliga tutashadi va kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda 716 metr masofani o‘tib, Salar kanali bo‘yida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°09'43,477", sharqiy uzoqlik 69°07'47,563").*

47-nuqtadan chegara chizig‘i Salar kanalidan dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-janubyi-sharqiy yo‘nalishda 532 metr masofada zovurni kesib o‘tib, zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 670 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 128 metr masofani o‘tib, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 293 metr masofada Salar kanalini kesib o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 48-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°09'18,147", sharqiy uzoqlik 69°07'18,014").*

48-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Salar kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1118 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 117 metr masofada Niyozboshi arig‘ini kesib o‘tib, Qoraqulduq arig‘iga o‘tadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 46 metr masofani o‘tib, M-34 avtomobil yo‘li ko‘prigi bo‘yida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°09'42,697", sharqiy uzoqlik 69°07'21,590").*

49-nuqtadan chegara chizig‘i M-34 avtomobil yo‘li ko‘prigini kesib o‘tib, Qoraqulduq arig‘iga tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 60 metr masofani o‘tib, keyin umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 323 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°09'34,871", sharqiy uzoqlik 69°07'11,811").*

50-nuqtadan chegara chizig‘i Qoraqulduq arig‘ini kesib o‘tib, tomorqa devoriga tutashadi va devor bo‘ylab umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy

yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 451 metr masofani o‘tib, tomorqa devorida joylashgan 51-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°09'46,524", sharqiy uzoqlik 69°07'03,209").*

51-nuqtadan chegara chizig‘i tomorqa devoridan qishloq ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 138 metr masofada ariqqa o‘tadi va shimoliy-shimoliy-garbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 178 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy yo‘nalishda 229 metr masofada beton ariqqa o‘tadi va shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda beton ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 352 metr masofada temir yo‘lini kesib o‘tib, temir yo‘l bo yida joylashgan 52-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°10'10,655", sharqiy uzoqlik 69°06'47,417").*

52-nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1404 metr masofani o‘tib, temir yo‘l bo‘yida joylashgan 53-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°10'53,703", sharqiy uzoqlik 69°07'03,498").*

53-nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 2352 metr masofada temir yo‘l ko‘prigi orqali zovurni va avtomobil yo‘ini kesib o‘tib, temir yo‘l bo‘yida joylashgan 54-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°12'09,747", sharqiy uzoqlik 69°07'04,975").*

54-nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1039 metr masofada M-39 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, temir yo‘l bo‘yida joylashgan 55-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°12'42,378", sharqiy uzoqlik 69°06'54,662").*

55-nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lidan zovurga o‘tadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 95 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 197 metr masofani o‘tib, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 196 metr masofani o‘tib, so‘ngra g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 166 metr masofada qishloq ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lning sharq tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nliashda 267 metr masofani o‘tib, keyin yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 136 metr masofani o‘tib, so‘ngra yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 37 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 56-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°12'58,712", sharqiy uzoqlik 69°06'36,670").*

56-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 275 metr masofani o‘tib, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 117 metr masofada tomorqa devoriga o‘tadi va devor bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 135 metr masofani o‘tib, zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 46 metr masofani o‘tib, so‘ng g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 102 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 57-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°13'00,282", sharqiy uzoqlik 69°06'11,539").*

57-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 789 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 58-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°12'37,720", sharqiy uzoqlik 69°05'55,582").*

58-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiuy yo‘nalishda 324 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘lidan Shimoliy Toshkent kanaliga o‘tadi va kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 870 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 59-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°12'15,701", sharqiy uzoqlik 69°05'37,341").*

59-nuqtadan chegara to‘g‘ri chizq orqali sharqiy yo‘nalishda 52 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, Bo‘zsuv kanaliga tutashadi va kanalning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1513 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1445 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 60-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°11'11,066", sharqiy uzoqlik 69°04'44,414").*

60-nuqtadan chegara chizig‘i Bo‘zsuv kanalidan dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 194 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 166 metr masofada Shimoliy Toshkent kanalini kesib o‘tib, sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 463 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 61-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°11'29,188", sharqiy uzoqlik 69°04'57,496").*

61-nuqtadan chegara chizig‘i Shimoliy Toshkent kanalidan qishloq ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 486 metr masofada avtomobil yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq

tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 128 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 62-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°11'47,413", sharqiy uzoqlik 69°04'54,070").*

62-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lidan dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1325 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 63-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°11'55,242", sharqiy uzoqlik 69°03'59,326").*

63-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan zovurga o‘tadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 291 metr masofani o‘tib, keyin umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 427 metr masofani o‘tib, Shimoliy Toshkent kanali bo‘yida joylashgan 64-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°11'43,627", sharqiy uzoqlik 69°03'41,638").*

64-nuqtadan chegara chizig‘i Shimoliy Toshkent kanalining suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 156 metr masofani o‘tib, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1355 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 65-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°11'21,948", sharqiy uzoqlik 69°02'48,875").*

65-nuqtadan chegara chizig‘i Shimoliy Toshkent kanalidan dambaga o‘tadi va damba bo‘ylab shimoliy yo‘nalishda 253 metr masofani o‘tib, zovurga o‘tadi va g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 215 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 66-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°11'31,351", sharqiy uzoqlik 69°02'38,994").*

66-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2674 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 67-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°12'17,101", sharqiy uzoqlik 69°01'08,486").*

67-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan Toshkent kanaliga tutashadi va umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1721 metr, keyin umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1585 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘li bo‘yida joylashgan 68-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41° 13' 29,789", sharqiy uzoqlik 69°01'54,629").*

68-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 152 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 52 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 89 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 69-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°13'29,008", sharqiy uzoqlik 69°01'46,330").*

E dan A gacha Qozog‘iston Respublikasi yerlari bilan 69 – 1 nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

69-nuqtadan 1-nuqtagacha chegara chizig‘i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo‘yicha mavjud chegara chizig‘i bo‘yicha olindi. *(shimoliy kenglik 41°18'37,311", sharqiy uzoqlik 69°02'44,363")*

Xalq deputatlari Zangiota tumani
Kengashining
2026-yil 6-apreldagi
VII-26-24-10-138-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Toshkent viloyati Zangiota tumani ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining kartografik

CHIZMASI

